# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-may holatiga)**

**Ro'yxatdan o'tgan**
**17679**

2019-yilning 1-may holatiga 17679 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,0 foizga o'sgan

**Faoliyat ko'rsatayotgan**
**16712**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2600 ta (18,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16712 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilganlar**
**2335**

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2335 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1622 taga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

## (2019-yil 1-may holatiga)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 20,0 %

**2019-yilning 1-may holatiga 17679 ta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 26,7 % savdo, 16,7 % sanoat, 9,2 % qurilish, 7,4 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 2,0 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.**

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha (4709 ta) savdo, (2955 ta) sanoat, (1634 ta) qurilish, (1300 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, (1124 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (657 ta) tashish va saqlash, (369 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (228 ta) axborot va aloqa hamda (4703 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 16712 tani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2600 ta (18,4 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko’p Urganch shahri (3969 ta), Urganch (1825 ta), Xiva shahri (1542 ta), Xiva (1455 ta) va Xonqa (1320 ta) tumanlari hissasiga to’g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (650 ta), Shovot (802 ta) hamda Bog'ot (827 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2335 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1622 taga ko'pdir.

## 2019-yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

**Savdo**
40,3 %

**Sanoat**
22,4 %

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
8,3 %

**Qurilish**
7,3 %

**Tashish va saqlash**
2,7 %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
6,1 %

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
1,3 %

**Axborot va aloqa**
0,6 %

**Boshqa turlari**
11,0 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (940 ta), sanoat (524 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (193 ta) va qurilish (171 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (13 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (30 ta) hamda tashish va saqlash (64 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida

| | |
|---|---|
| Savdo | 940 |
| Tashish va saqlash | 64 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 193 |
| Qurilish | 171 |
| Sanoat | 524 |
| Axborot va aloqa | 13 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 30 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 143 |
| Boshqa turlari | 257 |

# Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (462 ta), Urganch (344 ta), Xazorasp (237 ta) va Xiva shahri (217 ta) tumanlari hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Yangibozor (93 ta), Yangiariq (98 ta), Bog'ot (117 ta) hamda Shovot (132 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.**



# Tijorat korxonalari

**(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**(2019-yil 1-may holatiga)**

**Faoliyat ko’rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 13709 tani tashkil qildi**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati**




**Xususiy korxona**




**Oilaviy korxona**




**Unitar korxona**




**Aksiyadorlik jamiyati**




**Boshqalar**



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

**2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 91 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 75,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

## 1-may holatiga

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**91**

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %**




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 65 tasi qo'shma, 26 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.**






## Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 26 ta (jamidagi ulushi 28,6 %), Shovot tumanida 11 ta (12,1 %) va Urganch tumanida 10 tani (11,0 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa 2 ta (2,2 %), Gurlan 4 ta (4,4 %), Yangiariq 4 ta (4,4 %), Xazorasp 5 tani (5,5 %) hamda Xiva tumanlarida 5 ta (5,5 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 23 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga ko'paygan.



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Kanada - 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, Malayziya - 1 ta va Amerika Qo'shma Shtatlari – 1 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 10 ta sanoat, 4 ta qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 3 ta savdo va 2 ta qurilish faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda**




2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13620 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 21,1 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2245 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1633 taga ko’proqdir.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi

| • Eng katta ulushi | • Eng kichik ulushi |
| --- | --- |
| •Urganch shahri 24,2 % | •Yangiariq 6,0 % |
| •Urganch 11,4 % | •Qo'shko'pir 5,8 % |
| •Xiva shahri 10,4 % | •Gurlan 5,7 % |
| •Xiva 9,2 % | •Bog'ot 4,4 % |
| •Xonqa 7,9 % | •Shovot 4,2 % |
| •Xazorasp 7,2 % | •Yangibozor 3,6 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 13620 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4446 ta (32,6 %) – savdo, 2780 ta (20,4 %) - sanoat, 1521 ta (11,2 %) - qurilish, 1184 ta (8,7 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1028 ta (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 615 ta (4,5 %) - tashish va saqlash, 275 ta (2,0 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 193 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1578 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
**6.4**

**Sanoat**
**23.3**

**Qurilish**
**7.6**

**Savdo**
**41.8**

**Tashish va saqlash**
**2.9**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
**8.5**

**Axborot va aloqa**
**0.6**

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
**0.7**

**Boshqa turlari**
**8.2**

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’p savdo 940 ta, sanoat 524 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 191 ta va qurilish 170 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 13 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatish 16 ta hamda tashish va saqlashda 64 ta tashkil etilgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahri (449 ta), Urganch tumani (336 ta), Xazorasp tumani (220 ta) va Xiva shahri (213 ta) hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (84 ta), Yanigariq (95 ta) hamda Bog'ot (113 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

**(1-may holatiga )**







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,9 % yoki 509 tasi sanoat, 27,0 % yoki 476 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,8 % yoki 472 tasi savdo, 6,8 % yoki 120 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 18 tasi qurilish, 0,9 % yoki 16 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 11 tasi tashish va saqlash hamda 7,3 % yoki 128 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Statistik registrlarni yuritish bo'limi.

## Tel.:62-224-65-11